



# IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

DOI: 10.67227

ISSN 3060-5059



**VOL.3 № 6**

**2026**

## **HIKOYATLARDA AN'ANA VA MAHORAT ("ROHATI DIL" ASARIDAGI HIKOYAT MISOLIDA)**

**Aliyeva Sevinch Sayfiddin qizi**

Jizzax davlat pedagogika universiteti, doktorant

### **Annotatsiya**

Mazkur maqolada o'zbek mumtoz adabiyotining yirik namoyandasi Xo'janazar Huvaydoning "Rohati dil" asaridagi "Hikoyatu-l-xomis: Uch qardosh safarda ganch tovub nafs shaytonig'a ovora bo'lub halok bo'lg'onlari" hikoyati an'ana va badiiy mahorat nuqtayi nazaridan tahlil etiladi. Tadqiqotda hikoyatning Qur'oniy va hadisliy manbalari, uning "Kalila va Dimna" asari bilan syujet-mushtarak jihatlari hamda Huvaydoning individual ijodiy yondashuvi yoritiladi. Muallif an'anaviy syujet asosida nafs, ochko'zlik va ma'naviy komillik masalalarini islomiy-tasavvufiy g'oyalar bilan uyg'unlashtirib, asarga chuqur ma'rifiy mazmun baxsh etgan. Tadqiqot natijalari Huvaydoning diniy-ma'rifiy qissachilik an'analarini yangi badiiy bosqichga ko'targanligini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** an'ana, mahorat, diniy-ma'rifiy qissachilik, hikoyat, diniy motiv, Huvaydo, Rohati dil, nafs, tasavvuf, nasr-nazm sintezi, Kalila va Dimna, Qur'oniy an'ana, hikoyatchilik, badiiy mahorat, ochko'zlik.

## **ТРАДИЦИЯ И МАСТЕРСТВО В ПОВЕСТВОВАНИЯХ (НА ПРИМЕРЕ РАССКАЗОВ В ПРОИЗВЕДЕНИИ "РОХАТИ ДИЛ")**

**Алиева Севинч Сайфиддин кизи**

Джизакский государственный педагогический университет, докторант

### **Аннотация**

В статье анализируется рассказ «Хикояту-л-хомис: О том, как трое братьев, найдя в пути клад, стали жертвами своих страстей и погибли» из произведения «Рохати дил» выдающегося представителя узбекской классической литературы Ходжаназара Хувайдо с точки зрения традиции и художественного мастерства. Исследуются коранические и хадисные истоки сюжета, его параллели с произведением «Калила и Димна», а также своеобразие художественного метода Хувайдо. Показано, что писатель обогатил традиционный сюжет исламско-суфийскими идеями, раскрыв темы человеческих страстей, жадности и духовного совершенствования. Результаты исследования свидетельствуют о том, что Хувайдо поднял узбекскую религиозно-просветительскую повествовательную традицию на новый художественный уровень.

**Ключевые слова:** традиция, мастерство, религиозно-просветительская проза, рассказ, религиозный мотив, Хувайдо, «Рохати дил», нафс, суфизм, синтез прозы и поэзии, «Калила и Димна», кораническая традиция, повествовательное искусство, художественное мастерство, жадность.

## **TRADITION AND MASTERY IN NARRATIVES (ON THE EXAMPLE OF STORIES IN THE WORK "ROHATI DIL")**

**Aliyeva Sevinch Sayfiddin qizi**

Jizzakh State Pedagogical University, Doctoral Student

### **Abstract**

This article analyzes the story "Hikoyatu-l-Khomis: The Tale of Three Brothers Who Found Treasure on a Journey and Perished Due to the Temptations of the Self" from Rohati Dil by the prominent representative of Uzbek classical literature, Khojanazar Huvaydo, from the perspectives of literary tradition and artistic mastery. The study explores the Qur'anic and Hadith-based roots of the narrative, its plot parallels with Kalila and Dimna, and Huvaydo's distinctive artistic approach. The author demonstrates how Huvaydo enriched a traditional narrative with Islamic and Sufi ideas, emphasizing themes of greed, the lower self (nafs), and spiritual perfection. The findings reveal that Huvaydo elevated Uzbek religious-educational storytelling to a new artistic level through his creative reinterpretation of inherited literary traditions.

**Keywords:** tradition, artistic mastery, religious-educational storytelling, narrative, religious motif, Huvaydo, Rohati Dil, nafs, Sufism, prose-poetry synthesis, Kalila and Dimna, Qur'anic tradition, storytelling, literary artistry, greed.

O'zbek adabiyotshunosligini o'rganish jarayonida salaf va halaflar ijodidagi asarlarning salmoqli qismi an'anaviylikka asoslanganligini kuzatish mumkin. Adabiyotshunoslikda birinchilardan bo'lib Mikhail Bakhtin an'ana (traditsiya) atamasi haqida 1924-yilda fikr bildirgan bo'lib, u o'z asarlarida adabiyot madaniyatning ajralmas qismi ekanligini ta'kidlaydi hamda adabiyot ham an'anaviylikka ega ekanligiga to'xtalib o'tadi. Ya'ni an'ana (traditsiya) tushunchasini "katta davr" sifatida izohlashga harakat qilib, aynan shu davrda o'ziga xos an'analarni yaratilishi, ijodkorlar esa ularga munosabat bildirib, o'z asarlarida aks ettirishlari mumkinligini izohlaydi.

Bu atama (traditsiya) xususidagi tushunchani adabiyotshunoslikka birinchilardan bo'lib Viktor Dinnik kiritgan. U traditsiya so'zi lotin tilidagi *tradere* ("uzatmoq", "topshirmoq") so'zidan olingan bo'lib, "uzatish" ma'nosini anglatishini ta'kidlaydi. Biroq bu tushuncha bir qator adabiy hodisalarni ketma-ket bog'lash natijasini ifodalovchi istiloh sifatida qo'llanmasligi kerakligini ham uqtiradi. Shu bois u atamani kengroq talqin qilib, uni "taqlid qilish", "o'zlashtirish" va "ta'sir qilish" tushunchalari orqali izohlashga intiladi.

O'zbek adabiyotshunosligi va tadqiqotlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ularda ham an'ana borasida amalga oshirilgan kuzatishlarga duch kelishimiz mumkin. M. Yunusov "Barhayot an'analari" nomli tadqiqotida bu masalaga quyidagicha yondashadi: "Dunyoni badiiy idrok etish sohasida davrdan davrga, bo'g'indan bo'g'inga o'tib keladigan adabiy tajribalarni ko'zda tutamiz. Ya'ni traditsiya keksa bo'g'in ijodiy laboratoriyasida sinalgan, jilosi o'chmaydigan vositalarni yosh bo'g'inga topshirishdir. Amalda traditsiya g'oyat katta bir xazina bo'lib, uning turli-tuman javohirlari bor. Undan har kim o'ziga keraklisini oladi: birov syujet qurish mahoratini, birov yorqin xarakterlar yaratishni, birov qahramonlar psixologiyasini tasvirlashni, boshqa birov esa romantik parvozni o'rganadi. Shu yo'sinda traditsiyadan o'rganish ma'lum ma'noda badiiy tadqiqotga aylanadi". O'zbek adabiyotidagi an'analarni xususida mulohaza yuritganda, mumtoz an'analarga alohida e'tibor qaratish zarur.

#### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR .**

O'zbek adabiyotining diniy-ma'rifiy qissachilik merosi juda boy. O'zbek adabiyotshunosligida ushbu asarlar Istiqloldan keyingi davrda adabiyotshunoslar tomonidan keng o'rganildi. Jumladan, B. Valixojayev, A. Hayitmetov, U. Jo'raqulov, H. Eshonqulov, A. Qayumov, Dilnavoz Yusupova, E. Fozilov, Haydarbek Bobobekov, Mahmud Hasaniy va boshqalarning tadqiqotlari bu borada muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu mavzuni yoritishda tadqiqotlar, monografiyalar, ilmiy ishlar hamda asarlardan foydalanildi.

#### **NATIJALAR VA MUHOKAMA**

Sharq adabiyotida Qur'oni Karimda zikr etilgan payg'ambarlar haqidagi qissalarga asoslanib yaratilgan asarlar mavjud bo'lib, ular bir butun payg'ambarlar haqidagi diniy-ma'rifiy qissachilik an'anasini tashkil etadi. Tarixda bundan ham ko'proq payg'ambarlar o'tganligi haqida ma'lumotlar bor, biroq ular muqaddas kitobimizda zikr etilmagan. Bu xususda Qur'oni Karimda shunday deyiladi: "Biz Sizdan oldin (ko'p) payg'ambarlarni yuborgandirmiz. Ulardan Biz Sizga qissasini aytganimiz ham bor, yana ulardan Biz Sizga qissasini aytmaganimiz ham bordir".

Hadislarda ham bu haqda ko'plab ma'lumotlar mavjud: "Sahobai kiromdan Abu Zar al-G'iforiy shunday deydi: "Nabiy alayhissalomdan: "Ey, Rasululloh! Nabiyning dastlabkisi kim?" deb so'radim. "Odamdir!" deb javob berdilar. "U nabiymidi?" deb so'radim. "Ha, mukammal bir nabiy edi", dedilar. "Ey, Allohning Rasuli! Nabiyning soni qancha?" deb so'radim. "Bir yuz yigirma to'rt mingta", deb javob qildilar. "Ey, Rasululloh! Ularning nechtasi rasul?" deb so'radim. "Uch yuz o'n besh kishilik jamoat", deb marhamat qildilar".

Shu tariqa payg'ambarlar haqidagi diniy-ma'rifiy qissalarga Qur'oni Karim asos vazifasini o'taydi. Barcha davrlarda ham aholining ma'lum bir qismigina savodli bo'lgan. Shu sababli aholining qolgan qatlami Qur'on va hadis ilmlariga oid kitoblarni o'qiy olmagani. Natijada omma bir o'qishdayoq tushunishi oson bo'lgan, maishiy hayot bilan bog'liq, ammo negizida diniy bilimlar va payg'ambarlar obrazlari mujassam etilgan asarlarning yaratilishiga ehtiyoj tug'ilgan.

Hatto bu mavzudagi asarlarni yozishni davr talabi sifatida ilm ahlidan aholi vakillarining o'zlari iltimos qilganlar. Shuningdek, davr taqozosi bilan ko'plab diniy asarlar faqat arabiy yoki forsiy tilda yozilgan bo'lib, bu oddiy odamlarga qiyinchilik tug'dirgan. "...har qanday chinakam badiiy asar ijodkorning o'z davri, o'zi yashayotgan ijtimoiy muhitga munosabati, u xususidagi o'y-kechinmalari, tashvishi, iztirobi mahsuli sifatida paydo bo'ladi. Ijodkor shaxsi boshqalardan ko'ra mavjud hayot tartiblari, undagi ijobiy va salbiy jihatlar haqida ko'proq o'ylaydi, tashvish chekadi. Tabiatidagi ana shunday xususiyatlar, fazilat uni asar bitishga undaydi".

Ijodkorlar bu borada kitoblarning yozilish sabablari qismida alohida to'xtalib o'tganlar. Bu

xususda Xo‘janazar Huvaydoning Rohati dil asarida quyidagicha keltiriladi:

*Ko‘ngil shahri yagona azm qildim,  
Kitobim nasr edi, man nazm qildim.  
Bu Chimyon shahrining piri javoni,  
Tamomisi erurlar turkiyxoni.  
Alar garchi so‘zga behunarroq,  
Dedim bo‘lsa kitobim turkiy behroq.*

Shu tariqa diniy-ma‘rifiy an‘analar ruhida yozilgan Rohati dil asari yaratilgan. Bu asarda Qur‘oni Karimda nomlari zikr etilgan Iso alayhissalom, Jabroil alayhissalom, Muhammad sallallohu alayhi vasallam va ularning xalifalari, shuningdek, tarixda nomlari zikr etilgan mashhur avliyolar haqidagi hikoyatlar berilgan.

Sayf uz-Zafar Navbahoriyning Durr ul-majolis asarida ham ushbu ma‘lumotlar uchraydi: “Bilgilki, bu kaminayi gunohkor, bu zaif, shikasta va xokisor madad beruvchi Hazratning rahmatidan umidvor holda bu kitobni turkiy tilda o‘ttiz bob bilan tasnif etdim”.

Ushbu asarda ham payg‘ambarlarning ibratli hayotlari, Muhammad sallallohu alayhi vasallam, choryorlar — Abu Bakr Siddiq, Umar ibn Xattob, Usmon ibn Affon va Ali ibn Abu Tolib, ulardan keyin yashab o‘tgan mashhur tasavvuf shayxlari hamda o‘z davrining alloma olimlarining ibratli hayotidan namunalari keltirilgan.

Xo‘janazar Huvaydo Rohati dil asarida hikoyatlarni keltirishda bevosita diniy motivlarga suyanagan. “Motiv” (lot. *movere*, frans. *motif*) so‘zining lug‘aviy ma‘nosi syujetning tarkibiy unsuri, asarning mazmuni va mavzusini anglatadi. “Motiv” atamasiga manbalarda uning qaysi sohada qo‘llanilishiga qarab turlicha ta‘riflar beriladi. Shu o‘rinda diniy motivlarga quyidagicha ta‘rif berish mumkin: “Badiiy adabiyotdagi diniy motivlar deganda din asoslari, diniy e‘tiqod, odob-axloq, qonun-qoida, tartiblar, urf-odatlar, turmush tarzi va tafakkur shakllarini muayyan voqealar bilan bog‘liq syujetlar vositasida hayotiy tasvirlash orqali insonga yo‘l ko‘rsatish mazmunini anglash lozim bo‘ladi”.

Diniy motivlar syujet tuzilmasidagi voqea-hodisalarning payg‘ambarlar hayoti va faoliyati bilan bog‘liq holda kechishi orqali namoyon bo‘ladi. Qur‘oni Karimning Baqara surasi 151-oyatida shunday deyiladi: “Ey insonlar, shuningdek, Biz sizlarga o‘zlarinigizdan bo‘lgan bir Payg‘ambar yubordik. U sizlarga Bizning oyatlarimizni tilovat qilib beradi, sizlarni poklaydi, sizlarga Kitob va hikmatni (Qur‘on va hadisni) o‘rgatadi va bilmagan narsalarinigizni ta‘lim beradi”.

Shuning uchun ham diniy-ma‘rifiy asarlarning qahramonlari diniy tushunchalarning mazmun-mohiyatini ibratli hikoyat va qissalar asosida tushuntirib beradilar. Har bir e‘tiqodiy qarashdagi muqaddas kitoblar esa namuna vazifasini bajaradi. Aynan shu yondashuv asosida alohida diniy-ma‘rifiy qissachilik yo‘nalishi paydo bo‘lib, asarlar tarkibiga hikoyat va rivoyatlar kiritilgan.

“Abdurahmon Jomiy, keyinchalik Alisher Navoiy sardorlik qilgan bu katta ijodiy maktabda ilmiy-nazariy bahslardan tashqari qissaxonlik, voizlik, latifago‘ylik, lutf va zarofatga juda katta e‘tibor berilar edi. Mushoira va mubohasalarda adib va noqlar o‘z nutqlarida o‘tmish va zamon voqealari, mashhur kishilar hayoti va faoliyati xususida hikoyatlar keltirishar, Qur‘oni Karim va payg‘ambar hadislarini nasr va nazmda ta‘sirchan yo‘sinda bayon etganlar. Keyinchalik bunday hikoyatlar Habib us-siyar, Makorim ul-axloq, Majolis ul-oshiqin, Badoe‘ ul-vaqoe‘, Nafohat ul-uns, Futuvvatnoma singari asarlar tarkibiga kiritilgan”.

Rohati dil asarida ham diniy-ma‘rifiy qarashlarni ochib berish uchun 16 ta hikoyat va 6 ta rivoyat keltirilgan. Tadqiqot natijasi sifatida ayrim hikoyatlar tahlil doirasiga tortildi.

**“Hikoyatu-l-xomis: Uch qardosh safarda ganj topib, nafs va shayton vasvasasiga berilib halok bo‘lganlari”** hikoyati *Rohati dil* asarining g‘oyaviy jihatdan eng salmoqli hikoyatlaridan biri bo‘lib, unda nafs va shayton vasvasasiga berilgan uch qardoshning fojiali qismati tasvirlangan. Hikoyat “Dar bayoni ro‘zi qiyomat” qismidan keyin kelib, uch aka-ukaning safar chog‘ida xazina topib, nafslariga qul bo‘lib, bir-birlarini o‘ldirganliklari haqida hikoya qilinadi.

Bu gunohning qanchalik og‘ir ekanligi va uning oqibati qanday bo‘lishini tushuntirish maqsadida qo‘shimcha ravishda ikkita hikoyat (1. Qiyomat kuni haqida; 2. Ka‘b al-Ahbor kitobidagi hikoyat) hamda ikkita rivoyat (1. Ibn Abbos tomonidan; 2. Abu Hurayra tomonidan) keltiriladi. Hikoyat jami 220 baytdan iborat.

Bu hikoyatni keltirishdan maqsad — nafsiga berilgan insonlar qiyomat kunida nimalarga duchor bo‘lishini tushuntirishdir. Shuningdek, “*Rohati dil*” asarining yaratilgan davri, ya‘ni XVIII asr o‘rtalari, O‘rta Osiyo tarixining eng notinch sahifalaridan birini tashkil etadi. Qo‘qon xonligidagi adabiy muhit va madaniy hayotni shakllantirishda temuriylar davriga taqlid davom etib, madaniy va adabiy

muhitda ming sulolasini ulug'lashga intilish ustunlik qilgan, ammo bu ideallashtirish ortida og'ir siyosiy haqiqatlar yashiringan edi. Bular: xonliklar o'rtasidagi toj-u taxt uchun kurash, qon-qarindoshlar o'rtasidagi xiyonat va sotqinliklar bo'lib, davr hayotining ajralmas qismiga aylangan edi. Aynan shu nuqtayi nazardan qaraladigan bo'lsa, ushbu hikoyatdagi uch qardosh obrazi nafaqat diniy-axloqiy ramz, balki o'z zamonasining ijtimoiy-siyosiy ahvolini ham talqin etadi. Bu holat shoirning tasavvufiy tafakkuri bilan hayotiy kuzatuvlarining uyg'un sintezini namoyon etadi va *"Rohati dil"* asarining mazmunini chuqurligini yanada boyitadi.

Hikoyat o'zining syujet tuzilmasi, g'oyaviy-badiiy ko'lami va an'anaviy ildizlariga ko'ra alohida tahlilni taqozo etadi. Hikoyatning diniy-ma'rifiy poydevori Qur'oni Karim va hadis ilmiga borib taqaladi. Nafs tushunchasi Qur'oni Karimda bir necha o'rinda markaziy mavzu sifatida ko'tariladi: "Men nafsimni oqlamayman. Chunki nafs, albatta, yomonlikka buyuruvchidir. Darhaqiqat, Parvardigorim Mag'firatli va Mehribondir" (Yusuf surasi, 53-oyat). Shu bilan birga, hadislarda ham nafs bilan kurash masalasi alohida ta'kidlangan. Xususan, Rasululloh (s.a.v.): "Ammo men sizga dunyo sizdan avvalgilarga berilganidek sizlarga ham ko'p berilishi, ular dunyo uchun kim o'zar musobaqasi o'ynaganidek sizlar ham kim o'zar musobaqasi o'ynashingiz va dunyo ularni halok qilganidek sizlarni ham halok qilishidan qo'rqaman", — deganlar (Sahihi Buxoriy, 3158). Huvaydo ham aynan shu diniy-axloqiy g'oyani badiiy obraz orqali ifodalash uchun ushbu Qur'oniy va hadisiy an'anani davom ettiradi.

Hikoyatning syujeti jihatidan esa mazkur hikoyat Sharq hikoyatchiligida keng tarqalgan "xazina topib olgan va bir-birini o'ldirgan uch kishi" motivi asosida yozilgan. Bu motivning Sharq adabiyotida qadimiy ildizlari mavjud. Hind xalq og'zaki ijodi asosidagi *"Pancha-tantra"* ("Besh kitob") qadimdan *"Kalila va Dimna"* nomi bilan Markaziy Osiyoda, xususan, turkiy xalqlar orasida mashhur bo'lgan. Undagi hikmatlar, o'git va pand-nasihatlarga boy hikoyatlar avloddan avlodga o'tib kelgan. *"Kalila va Dimna"* uzoq vaqtlardan beri o'zbek xalqiga ma'lum bo'lib, uning ko'plab hikmatli so'zlari va ibratli hikoyalari turli yo'llar bilan xalq orasiga keng yoyilib, og'izdan og'izga o'tib kelmoqda. Asarning o'zbek xalq ijodi va yozma adabiyotiga ta'siri ham katta.

Aynan shu syujet *"Kalila va Dimna"* asaridagi *"Sher va ho'kiz bobi"* dagi "Kalilaning yana bir hikoyati" da uchraydi. Unda ikki savdogar safarga chiqib, yo'lda ikki xalta tilla topib oladi. Hiylagar savdogar sherigini aldab, oltinni o'zlashtirib qo'yadi va so'ng uni qoziga beradi. Biroq uning hiylasi fosh bo'lib, o'zi ham, otasi ham halok bo'ladi. Hikoyat "nafsga berilishning oqibati yomon bo'lishi, xiyonatning jazosi muqarrar ekanligi" haqidagi xulosa bilan yakunlanadi.

Huvaydo hikoyat orqali bu an'anaviy syujetni bir qator muhim jihatlar bilan boyitgan. Xususan, ikki savdogar o'rniga uch aka-uka obrazini qo'llashi xiyonatning eng yaqin kishilar orasida ham yuzaga kelishi mumkin ekanligini ko'rsatadi. Shuningdek, *"Kalila va Dimna"* da hiyla insonning o'z xohishi bilan amalga oshsa, *"Rohati dil"* da Dunyo (ya'ni nafs) jonlantirilgan obraz sifatida qahramonlar oldiga kelib, ularni yo'ldan ozdiradi. Bu bilan tasavvufiy jihatdan Huvaydoning an'anaga qo'shgan o'ziga xos badiiy hissasi yaqqol ko'rinadi. *"Kalila va Dimna"* da adolat tiklanib, xiyonatkor va uning otasi halok bo'ladi, soddadil esa mukofotlanadi. Huvaydoda esa barcha qahramonlar halok bo'ladilar. Bu islomiy-axloqiy talablarning qat'iyiligini ko'rsatadi: dunyo boyligiga ko'z tikkan har qanday inson halokatga mahkumdir.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, hikoyatning mazmun va mohiyatini yanada chuqurroq ochib berish uchun yana ikkita hikoyat (1. Qiyomat kuni haqida, 2. Ka'bul Ahbor kitobidagi hikoyat) va ikkita rivoyat (1. Ibn Abbos tomonidan, 2. Abu Hurayra tomonidan) keltiriladi. Asosiy "uch aka-uka" hikoyati yakunlangach, Huvaydo o'quvchini bevosita qiyomat kuni manzaralari bilan tanishtiradi. Bu hikoyatda gunohkorlarning do'zaxga tushib azob chekishi, Allohning: "Nega shayton vasvasasiga ergashdingiz?" degan savoli va insonlarning javob bera olmay uyulishlari tasvirlanadi.

An'ana jihatidan qaraladigan bo'lsa, bu hikoyatning asosi Qur'oni Karimda mustahkam o'rin olgan. Qur'oni Karimda qiyomat kuni tasviri bir qator suralarda keltirilgan: "U Kunda kishi o'z og'a-inisidan ham, onasi va otasidan ham, xotini-yu bola-chaqasidan ham qochur" (Abasa surasi, 34–36-oyatlar). Shuningdek: "U Kunda sur chalinur, bas, sizlar to'p-to'p bo'lib (mahshargohga) kelursizlar!" (Naba surasi, 18-oyat). Huvaydo aynan shu Qur'oniy undovlarni hikoyat shakliga keltiradi. Bu esa diniy-ma'rifiy qissachilik an'anasining asosiy usullaridan biri bo'lib, muqaddas matnni oddiy xalqqa hikoyat vositasida yetkazib beradi.

Mahorat jihatidan esa Huvaydo bu hikoyatda dialogdan mohirona foydalanadi. Allohning: "Men sizlarga to'g'ri yo'lni ko'rsatgan edim-ku, axir, nima uchun noto'g'ri yo'lni tanladingiz?" degan to'g'ridan-to'g'ri murojaat uslubi va insonlarning javobsiz qolishi orqali yaratilgan dramatik ziddiyat o'quvchi qalbiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Ikkinchi yordamchi hikoyat Ka'bul Ahbor kitobidan keltirilgani qayd etiladi. Ka'bul Ahbor haqida tarixiy manbalarda turli ma'lumotlar uchraydi. Abu Homid G'azzoliyning "*Mukoshafatul qulub*" nomli asarida Ka'bul Ahborning hikmatlari va asar oxirida tarjimai holi berilgan: "Ka'bul Ahbor: to'la ismi Abu Ishoq ibn Moti' ibn Hoysu. Payg'ambarimizdan keyingi ikkinchi xalifa Umar (r.a.) zamonlarida musulmonlikni qabul qilgan yamanlik yahudiylerden bo'lib, arablardagi isroiliy va musulmon rivoyatlarining eng qadimgi roviylaridan hisoblanadi".

Huvaydo aynan shu sababli uning asarlariga murojaat qiladi, hikoyatlaridan namunalar keltiradi va ularni masnaviy shaklga soladi.

Keltirilgan hikoyat ibodatning qiyomatdagi foydasi haqidagi hadis-diniy an'analarga asoslangan. Abu Amr Shayboniy (r.h.) rivoyat qiladilar: "Abdulloh (r.a.) Nabiy (s.a.v.)dan: «Alloh taolo uchun qaysi amal sevimliroq?» deb so'rabdi. Rasululloh (s.a.v.): «O'z vaqtida o'qilgan namoz», — dedilar" (Sahihi Buxoriy, 527). Huvaydo ham Ka'bul Ahbor manbalariga tayangan holda bu hadis-diniy g'oyani namozning yetti qismida, aynan farishtalar himoyasi obrazi orqali yanada kengroq tasvirlab bergan.

Mahorat jihatidan Huvaydo bu ikkita hikoyatni bir-biri bilan g'oyaviy ziddiyat orqali bog'laydi: birinchi hikoyatda namoz o'qimagan gunohkorlar azoblansa, ikkinchi hikoyatda namoz o'qigan insonning himoya qilinishi tasvirlanadi. Bu tazod (kontrast) usuli o'quvchiga ibodatning ahamiyatini yanada kuchliroq tushuntirishga qaratilgan.

Ibn Abbos tomonidan rivoyat qilingan Sirot ko'prigi haqidagi rivoyat an'ana jihatidan islomdagi qiyomat va oxirat haqidagi diniy tasavvurlarning asosiy mavzularidan biri hisoblanadi. Abu Hurayra tomonidan rivoyat qilingan ikkinchi rivoyat esa hadis ilmida keng tarqalgan do'zax tavsifiga asoslanadi. Abu Hurayra rivoyatlari Imom Buxoriy, Imom Muslim, Abu Dovud va Termiziy to'plamlarida ham keltirilgan.

Huvaydo "*Hikoyatu-l-xomis: Uch qardosh safarda ganch tovub nafs shaytonig'a ovvora bo'lub halok bo'lg'onlari*" hikoyatiga qo'shgan to'rta yordamchi matn — ikki hikoyat va ikki rivoyatni tasodifiy tanlamagan, albatta. Ular bir-biri bilan uzviy mantiqiy zanjir hosil qilgan. Bu zanjir orqali Huvaydo o'quvchini bu dunyodagi halokatdan oxiratdagi halokatga, u yerdan esa tarbiyaviy xulosaga — namoz va ibodat orqali najot topish mumkinligi g'oyasiga olib boradi. Xuddi shu ko'p qatlamli ma'rifiy tuzilma "*Rohati dil*" asarini oddiy qissa emas, balki yaxlit diniy-ma'rifiy konsepsiya darajasiga ko'targan va Huvaydoning hikoyatnavislik mahoratini yaqqol namoyon etgan.

Xulosa qilib aytish mumkinki, barcha davrlarda ham aholining diniy bilimlarini oshirishga, ularni odob-axloqqa chorlashga xizmat qiluvchi asarlar yaratilgan va ular ma'lum an'anaviylik asosida yozilgan. Asarlarda keltirilgan hikoyatlar bugungi kunda o'quvchi uchun afsonadek tuyulishi mumkin, biroq ular zamirida kuchli tarbiyaviy mazmun yotadi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, bu asarlar zamonlar osha barhayot yashab kelmoqda, ularning qiymati oshib bormoqda, ammo hech qachon kamaygan emas.

Bizning ulkan adabiy merosimiz borki, uni o'rganish va amaliy ahamiyatini yanada oshirish bugungi kundagi eng muhim vazifalarimizdan biridir. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning quyidagi fikrlarini keltirishni joiz deb topdik: "O'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o'rganish va targ'ib qilish, ko'p qirrali bu mavzuni bugungi kunda dunyo adabiy makonida yuz berayotgan eng muhim jarayonlar bilan uzviy bog'liq holda tahlil etib, zarur ilmiy-amaliy xulosalar chiqarish, kelgusi vazifalarimizni belgilab olish, o'ylaymanki, katta ahamiyatga ega" [8;339]. Diniy-ma'rifiy ruhda yozilgan asarlar zamirida ulkan tarbiyaviy masalalar yotadi. Bugungi globalashuv davrida yoshlarda Vatanga sadoqat, oilaga va ota-onaga mehr-oqibat tuyg'ularini shakllantirishda aynan shunday asarlardan samarali foydalanish mumkin. Adabiy merosimizni asrab-avaylash, uni kelajak avlodlarga yanada takomillashtirilgan va tushunarli shaklda yetkazishga harakat qilishimiz zarur.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Mirziyoyev Sh. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. — Toshkent: O'zbekiston, 2019.
2. Navoiy A. Mukammal asarlar to'plami. — Toshkent: Fan, 2000.
3. Yusupova D. Vazn qoidalari va mumtoz poetika asoslari. — Toshkent: Ta'lim-Media, 2019.
4. Adizova I. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. — Toshkent: Fan, 2009.
5. Bekova N. Navoiy-Foniyning forsiy g'azallarida badiiy mahorat masalasi // Alisher Navoiy adabiy va ilmiy merosini o'rganish masalalari: xalqaro konferensiya materiallari. — Toshkent, 2023.
6. Huvaydo X. Rohati dil. — Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi, 1994.
7. Navbahoriy Sayf uz-Zafer. Durr ul-majolis. — Toshkent: Meros, 1992.
8. Boboyev T. She'r ilmi ta'limi. — Toshkent: O'qituvchi, 1996.